



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING QARORI

2025 yil 7 aprel

№ 2006

Sudyalar oliy maktabining sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kursiga 2025/2026 o‘quv yili uchun qabul kvotasini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining 2025 yil 7 apreldagi xulosasiga muvofiq

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabining sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kursiga 2025/2026 o‘quv yili uchun qabul kvotasi **150** (bir yuz ellik) ta qilib belgilansin. Shundan:

Umumiy kvota: 102 (bir yuz ikki) ta

Fuqarolik huquqi yo‘nalishi bo‘yicha:

40 (qirq) ta;

Jinoyat huquqi yo‘nalishi bo‘yicha:

35 (o‘ttiz besh) ta;

Iqtisodiy huquq yo‘nalishi bo‘yicha:

12 (o‘n ikki) ta;

Ma‘muriy huquq yo‘nalishi bo‘yicha:

15 (o‘n besh) ta;

Qo‘shimcha kvota: 48 (qirq sakkiz) ta

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo va Xorazm viloyatlaridan hujjat taqdim qilgan talabgorlar uchun har bir yo‘nalish bo‘yicha qo‘shimcha 3 (uch) tadan:

36 (o‘ttiz olti) ta;

Xotin-qizlar uchun har bir yo‘nalish bo‘yicha qo‘shimcha 3 (uch) tadan:

12 (o‘n ikki) ta.

2. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi

X.Yodgorov